


2019 yilning yanvar oyida O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2019 yilning yanvar oyida mamlakat iste`mol bozorida tovarlar va xizmatlar narxi o`rtacha 1,5 %ga oshdi.

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha iste`mol narxlari indeksi (INI), (o`tgan oyga nisbatan, %)




Oy davomida mahsulotlar narxi 1,8 % ga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 2,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,5 %ga oshdi. Xizmatlar narxi esa 0,5 % ga o`ydi.

Ma`lumot uchun: 2018 yil yanvar oyida mahsulotlar narxlari 3,0 %, xizmatlar 1,4 %ga qimmatlashdi. Oziq-ovqat mahsulotlari 3,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari esa 2,3 %ga oshdi.

Oy davomidagi narxlar o`zgarishining tuzilmasi tahliliga ko`ra, 2019 yilning yanvar oyida har bir yirik guruhning salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, ta`sir darajasi bo`yicha ustunlik oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga tegishlidir (ta`siri 1,2 foiz darajasida (keyingi o`rinlarda f.d.)).

Asosiy turdagi tovarlar guruhi narxlarining o`zgarishi va ularning umumiy INI o`shidagi ta`siri, f.d.



Ma`lumot uchun: 2018 yilning yanvar oyida ham umumiy narxlar o`shishiga ta`sir darajasi bo`yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga (1,6 f.d.), minimal darajadagi ta`sir ulushi esa xizmatlar tarifi narxlariga (0,3 f.d.) taaluqlidir.


O`tgan yilning oxiriga nisbatan har bir guruhning umumiy INI o`shishiga qo`shgan hissasi quyidagi diagramma ko`rinishida yaqqol ko`rsatib o`tilgan:

Asosiy guruhlar bo'yicha tovar va xizmatlarning narxlari o'sishi va ularning umumiy INlga ta'sir ulushi

2018 yil
yanvar


Oziq-ovqat
mahsulotlari

59,3 %



Nooziq-ovqat
mahsulotlari

29,6 %



Xizmatlar


11,1 %



2019 yil
yanvar


Oziq-ovqat
mahsulotlari

80,0 %



Nooziq-ovqat
mahsulotlari

13,3 %



Xizmatlar

6,7 %



Shunday qilib, 2019 yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi umumiy INIning o'sishidagi hissasi 80,0 %ini tashkil etib, bu esa 2018 yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan yuqoriroqdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oy davomida o`rtacha 2,8 %ga oshganligi umumiy INI darajasining 1,2 f.d.da ko`tarilishini ta`minladi.

Ma`lumot uchun: 2018 yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o`sishi umumiy INIning ko`tarilishiga 1,6 f.d.da ta`sir etdi.

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan narxlarining o`sishi borasidagi yetakchilik meva-sabzavot mahsulotlari hissasiga to`g`ri kelib, bu esa narxlarning oy davomida o`rtacha 8,3 %ga qimmatlashganligini ko`rsatadi.

Narxlarining ko`tarilishidagi keyingi yetakchi o`rinni esa spirtli ichimliklar mahsulotlari (3,7 %) egallagan.

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo`ljallari to`g`risida"gi PQ-4086-son qaroriga asosan, mamlakatda ishlab chiqariluvchi spirtli ichimliklarga nisbatan aksiz soliq stavkalari oshirildi:

- ✓ *tabiiy vino – 1 dal uchun 6 994 so`mdan 7 700 so`mgacha;*
- ✓ *konyak – 1 dal uchun 73 997 so`mdan 92 500 so`mgacha;*
- ✓ *pivo – 1 dal uchun 7 699 so`mdan 9 200 so`mgacha;*
- ✓ *aroq va boshqa spirtli ichimliklar – 1 dal uchun 67 571 so`mdan 84 500 so`mgacha.*

Quyida alohida guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi taqdim etilgan:













O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
asosiy turdagi **oziq-ovqat mahsulotlari**
guruhlarining iste'mol narxlari indeksi
2019 yil yanvar

2018 yilning
dekabriga nisbatan



Oziq-ovqat
mahsulotlari **102,8 %**

Non mahsulotlari		102,0 %
Go'sht, parranda go'shti va baliq		100,9 %
Sut mahsulotlari		103,2 %
Tuxum		101,3 %
Yog' va moy		101,6 %
Shakar, choy va boshqa mahsulotlar		101,2 %
Alkogolsiz ichimliklar		100,0 %
Spirтли ichimliklar		103,7 %
Umumiy ovqatlanish		103,4 %
Meva va sabzavotlar		108,3 %

Biroq, har bir tovarlar guruhining salmoq vaznlarini inobatga olgan holda umumiy INI ko'rsatkichiga ta'sir darajasi bo'yicha yetakchi uchlikni

meva va sabzavotlar (ta`siri 0,7 f.d.), non mahsulotlari (0,2 f.d.) hamda sut mahsulotlari (0,1 f.d.) egallagan.

2018 yilning yanvar oyiga nisbatan tuxumdan tashqari deyarli barcha asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarida narxlar o`shishi qayd etilgan.

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %



Mahsulot nomi	2019 yil yanvar 2018 yilning yanvariga nisbatan
Non mahsulotlari	128,1
Go`sht, parranda go`shti va baliq	120,3
Sut mahsulotlari	113,3
Tuxum	96,7
Yog` va moylar	108,7
Shakar, choy va boshqa mahsulotlar	102,6
Alkogolsiz ichimliklar	104,8

Mahsulot nomi	2019 yil yanvar 2018 yilning yanvariga nisbatan
Spirтли ichimliklar	110,3
Umumiy ovqatlanish	115,2
Meva va sabzavotlar	105,0

2019 yil yanvar oyida ham asosiy turdagi non mahsulotlari narxlari qimmatlashishda davom etdi: un, non va non mahsulotlari, guruch, yorma va dukkakli mahsulotlar narxlari oy davomida 0,2 % dan 3,7 % oraliq`ida qimmatlashdi.

Ma`lumot uchun: guruch narxlari yanvar oyida sezilarli darajada Farg`ona viloyati (4,7 %) va Qoraqalpog`iston Respublikasida (4,5 %), minimal darajada esa Namangan viloyatida (1,1 %) oshgan.



Oy davomida bug`doy uni narxlari Qoraqalpog`iston Respublikasi (6,9 %) va Surxondaryo viloyatida (5,5 %) sezilarli darajada qimmatlashganligi kuzatilgan bo`lsa, minimal sur`atda oshganligi esa Xorazm viloyatida qayd etilgan (0,6 %). Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Samarqand va Farg`ona viloyatlaridagi narxlar oy davomida o`zgarishsiz qolgan.

Oliy navli bug`doy unidan non narxlari uch hududda oshgan: bular, Qoraqalpog`iston Respublikasi (13,3 %), Surxondaryo viloyati (9,6 %) va Toshkent shahrida (13,1 %).

1-navli bug`doy unidan non narxlari Qoraqalpog`iston Respublikasida (1,2 %), Surxondaryo (6,6 %) va Farg`ona (5,0 %) viloyatlarida qimmatlashgan.

Quyida asosiy turdagi non maxsulotlarining iste`mol narxlari indeksi taqdim etilgan:



2019 yilning yanvar oyida go`sht va parranda go`shti 0,9 %, baliq va baliq konservalari narxlari 2,0 %ga ko`tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht va baliq
mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi
– 2019 yil yanvar 2018 yilning dekabriga nisbatan –



Suyaksiz
mol go'shti
100,7 %



Mol go'shti
(suyaksiz go'shtidan tashqari)
100,6 %



Qo'y go'shti
100,5 %



Tirik va sovutilgan baliq
102,4 %




Parranda go'shti
(sonlardan tashqari)
101,7 %



Tovuq boldiri va
son qismlari
100,8 %

Ma`lumot uchun: mol go'shti (suyaksizdan tashqari) narxlari Toshkent (2,8 %) va Surxondaryo viloyatida (1,5 %), qo'y va suyaksiz mol go'shti Toshkent viloyatida (2,5 % va 3,7 %), tovuq boldiri va son qismi narxi Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida (3,4 %), boshqa parranda go'shti mahsulotlari Samarqand (3,8 %) va Toshkent viloyatlarida (3,7 %) sezilarli darajada qimmatlashgan.

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi
sut mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi
- 2019 yil yanvar oyi 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan -




Ma`lumot uchun: sut narxlari boshqa hududlarga nisbatan yuqori darajada oshganligi Toshkent (10,6 %), Jizzax va Namangan viloyatlarida (7,9 %) kuzatilgan.

2019 yilning yanvar oyida meva va sabzavot mahsulotlari narxlari o`rtacha 8,3 %ga o`sdi.

Sitrus mevalari narxlarini 1,0 %ga arzonlashganligini hisobga olmaganda, deyarli barcha turdagi meva va sabzavot mahsulotlari narxlarida o`shish kuzatilgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi - 2019 yil yanvar 2018 yilning dekabriga nisbatan, % -



2019 yilning yanvar oyida meva-sabzavotlar guruhi tarkibiga kiruvchi mahsulotlardan uzum (1,3 baravar), tarvuz (22,0 %) va pomidor (16,3 %) narxlarining yuqori darajada qimmatlashganligi qayd etilgan. Shuningdek, infografika ma`lumotlarida ko`rsatib o`tilgan mahsulotlardan tashqari oshqovoq (8,6 %), bodring (8,0 %), sarimsoq (5,1 %), tuzlangan bodring va pomidor (3,4 %), lavlagi (1,7 %), yong`oq (1,2 %), quritilgan mevalar (1,1 %) narxlari ham qimmatlashgan.

2019 yilning yanvar oyida O`zbekiston Respublikasi bo`yicha
alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining
iste`mol narxlari indeksi, %


Mahsulotlar nomi	2019 yil yanvar 2018 yilning yanvariga nisbatan
Olma	99,4
Banan	110,2
Uzum	73,0
Sitrus mevalar	122,8
Qurilgan mevalar	121,4
Yong'oq	104,8
Tarvuz	142,8
Qovun	144,5
Oshqovoq	128,6
Karam	253,6
Piyoz	64,1
Lavlagi	131,9
Sabzi	197,9
Bodring	134,8
Tuzlangan pomidor va bodring	127,7
Pomidor	83,7
Sarimsoq	56,5
Kartoshka	70,5

Yillik ma`lumotlar tahliliga ko`ra (2019 yil yanvar 2018 yilning yanvariga nisbatan), meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o`rtacha 5,0 %ga qimmatlashdi. Ushbu guruh mahsulotlari narxlari orasidagi o`zgarish doirasi nisbatan keng bo`ldi. Karam narxlari maksimal darajada qimmatlashib (2,5 baravar), sarimsoq narxlari esa aksincha minimal darajada (43,5 %) arzonlashdi.

Boshqa kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari bo`yicha yog`-moy mahsulotlari 2019 yilning birinchi oyi davomida 1,6 %ga, jumladan sariyog` 3,0 %, margarin 2,7 %, paxta yog`i 1,2 %, kungaboqar yog`i 1,1 %ga qimmatlashdi.

Shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o`rtacha 1,2 % ga qimmatlashdi.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar,
choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi
- 2019 yil yanvar 2018 yilning dekabriga nisbatan -**



Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

2019 yilning yanvar oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 0,5 %ga qimmatlashishi, yig`ma INIning oy davomidagi o`shishiga 0,2 f.d.da ta`sir etdi.

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %

Mahsulotlar nomi	2019 yil yanvar	
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning yanvariga nisbatan
Kiyim-kechak	100,5	109,1
Oyoq kiyim	100,4	108,4
Gazlama va eshilgan iplar	100,3	109,9
Maishiy to`qimachilik mahsulotlari	101,2	110,1
Madaniy mollar	100,3	100,4
Qurilish materiallari	100,1	115,7
Dori-darmonlar	100,2	104,2
Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	100,5	106,3
Tamaki mahsulotlari	100,0	117,6
Avtomobillar uchun yoqilg`i	100,7	118,8
Kitob, gazeta va jurnallar	116,9	119,5


Yanvar oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o`shishi bo`yicha yetakchi pog`onani bosma nashr mahsulotlari egallagan (16,9 %). Narxlarning qimmatlashishi mamlakatning deyarli barcha hududlarida qayd etilib, faqatgina Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo

viloyatlari va Toshkent shahrida ushbu mahsulotlar narxi 2018 yilning dekabr oyidagi narxlar darajasida saqlanib qolgan.

2019 yilning yanvar oyida har bir guruhning salmoq vaznlarni inobatga olgan holdagi umumiy INIning o`shishiga qo`shgan hissasi borasida yetakchi o`rinni bosma nashr mahsulotlari va kiyim-kechaklar guruhlari egallagan (ta`sir darajasi 0,03 f.d.).

Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarining deyarli barcha turlaridagi narxlar 0,2 %dan 1,5 %gacha oraliqda qimmatlashgan.

Oy davomida avtomobillar uchun yoqilg`i narxlari 0,7 %ga qimmatlashdi. Benzin narxlarining barqaror saqlanib qolganligi barobarida metan narxlari 9,4 %ga ko`tarilib, propan narxlari esa aksincha 14,4 %ga arzonlashdi.



Ma`lumot uchun: metan narxlari mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan sezilarli darajada Sirdaryo viloyatida (oy davomida 1,2 marta), pastroq sur`atlarda esa Buxoro viloyatida (3,1 %) qimmatlashganligi qayd etilgan.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi narxlar o`zgarishini inobatga olmaganda propan narxlarining arzonlashishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilgan.

Boshqa guruhga mansub nooziq-ovqat mahsulotlari iste`mol narxlari o`zgarishi quyidagi ko`rinish shaklida keltirilgan:

Mahsulotlar nomi	2019 yil yanvar, %	
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning yanvariga nisbatan
Attorlik mollari, soatlar	100,2	105,6
Iplar	100,5	106,5
Mebel	101,2	106,1
Gilam va gilam mahsulotlari	101,0	109,1
Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari	100,4	104,0
Oshxona jihozlari	100,5	105,4
Yuvish va tozalash vositalari	100,6	105,2
Shaxsiy transport	100,1	106,9
Aloqa vositalari	100,6	108,0

Xizmatlar iste`mol narxlari indeksi

2019 yilning yanvar oyida aholi uchun pullik xizmatlar sohasidagi narxlar o`rtacha 0,5 %ga oshganligi, oy davomidagi umumiy yig`ma INIning ko`tarilishiga 0,1 f.d.da ta`sir etdi.

Quyida aholiga pullik xizmatlarning asosiy guruhlari uchun tariflarning o`zgarishi keltirib o`tilgan:

Aholi uchun alohida turdagi xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi, %

	2019 yil yanvar	
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning yanvariga nisbatan
Xizmatlar	100,5	114,8
Maishiy xizmatlar	101,2	112,2
Uy-joy kommunal xizmatlari	100,1	125,5
Yo`lovchi transporti xizmatlari	100,9	115,2
Aloqa xizmatlari	100,1	111,7
Madaniyat muassasalari xizmatlari	100,5	105,9
MTM xizmatlari	100,0	95,1
Ta`lim xizmatlari	100,3	115,6
Sport xizmatlari	100,5	114,8
Dam olish xizmatlari	104,2	108,7
Tibbiy xizmatlar	100,2	106,5
Sug`urta xizmatlari	100,0	100,0

Oy davomida dam olish xizmatlari narxlari birmuncha sezilarli darajada qimmatlashdi (4,2 %). Dam olish va sixatgoh maskanlariga

tashrif buyurish narxlari yanvar oyida 4,6 %, mehmonxona xizmatlari 4,3 %, turistik sayohat xizmatlari 2,9 %ga ko`tarildi. Mehmonxona, sihatgoh va dam olish maskanlari xizmatlari narxlari o`shishi mamlakatning beshta hududida ro`yxatga olingan: Qoraqalpog`iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahri. Qolgan hududlarda ushbu xizmatlar narxlari 2018 yilning so`nggidagi narxlar darajasida saqlanib qolgan. Turistik sayohat xizmatlari narxlari qimmatlashganligi faqatgina Samarqand viloyatida ro`yxatga olingan bo`lib (26,3 %), buning natijasida respublika bo`yicha ushbu sohadagi umumiy narxlar darajasi 2,9 %ga ko`tarilgan.



Tariflarning o`shishi bo`yicha ikkinchi o`rinni maishiy xizmatlar guruhi narxlari egallagan bo`lib, oy davomidagi ko`rsatkich 1,2 %ni tashkil etgan. Narxlarning yuqori sur`atlarda o`shishi Xorazm (2,6 %), Qashqadaryo (2,5 %) va Samarqand (1,6 %) viloyatlarida qayd etilgan. Tariflarning minimal darajada o`shishi esa Sirdaryo viloyatida (0,4 %) kuzatilgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi maishiy xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi

- 2019 yil yanvar 2018 yilning dekabriga nisbatan -



Yuqorida sanab o'tilgan xizmatlardan tashqari yanvar oyida hammom va dush (3,0 %), avtoturargoh to'lovlari (2,2 %), ijara va individual poyabzal tikish xizmatlari (2,0 %) va hujjatlardan nusxa ko'chirish (1,0 %) narxlarining oshganligi ro'yxatga olingan.

Yanvar oyida ta`riflar o`shishi bo`yicha yetakchi uchlikni yo`lovchi tashish xizmatlari narxlari yakunlab berdi. Ushbu xizmatlar oy davomida 0,9 %ga qimmatlashdi.



Yo`lovchi tashish transporti tarifi narxlarining qimmatlashganligi umumiy inflyatsiya darajasining 0,03 f.d.da ko`tarilishiga sabab bo`ldi.

- Taksida yo`l haqi Buxoro (12,5 %) va Qashqadaryo (4,8 %) viloyatlarida oshdi;
- Yo`nalishli taksidagi yo`l haqi Sirdaryo viloyati (25,0 %) va Toshkent shahrida (4,6 %) qimmatlashdi;

- «O`zbekiston temir yo`llari» DATKda uzoq masofaga qatnaydigan poezdda yo`l haqi narxlarining o`rtacha 3,1 %ga qimmatlashganligi shveysariya valyutasi qiymatining oshishi va mahalliy qatnovlaridagi komission to`lovlarning ko`tarilganligi bilan bog`liq;
- «O`zbekiston xavo yo`llari» DAK orqali xavo transportida yo`lovchi tashish xizmatlari narxleri 1,3 %ga ko`tarilganligi milliy valyutamizga nisbatan Yevro qiymatining mustahkamlanganligi bilan izohlanadi.

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma`lumotlariga asosan, 2018 yilning 15 dekabridan 2019 yilning 15 yanvariga qadar so`mga nisbatan 1 AQSh dollari qiymati 8312,64 so`mdan 8356,18 so`mgacha (0,5 %), 1 yevro 9456,46 so`mdan 9582,03 so`mga (1,3 %), shveysariya franki 8394,06 so`mdan 8492,05 so`mga (1,2 %) qimmatlashdi.

Joriy yilning yanvar oyi davomida kommunal sohadagi tariflar narxlarining qimmatlashganligi faqatgina Navoiy viloyatida ro`yxatga olingan.

Ma`lumot uchun: Navoiy viloyati Moliya boshqarmasining 2018 yil 20 dekabrdagi №TM-12-61-2018, №TM-12-62-2018 va №TM-12-63-2018 reestri va 2018 yil 26 dekabrdagi Uy-joy kommunal xo`jaligining №260-son buyrug`iga asosan, 2019 yilning 9 yanvaridan Navoiy viloyati bo`yicha alohida turdagi kommunal xizmati tariflari oshirildi. Sovuq suv va kanalizatsiya uchun to`lovlar viloyat bo`yicha o`rtacha 20,1 %, issiq suv va issiqlik ta`minoti 10,0 % va maishiy chiqindi uchun to`lovlar narxleri 30,0 %ga ko`tarildi.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74